



FARG‘ONA VILOYATI FARG‘ONA TUMANI HOKIMINING FARMOYISHI

2025-yil 25-dekabr

178-11-163-F/25

Farg‘ona tumani hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy Davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 21¹-moddalariga asosan 2025-yil uchun tasdiqlangan mahalliy budjet parametrlarida kommunal xizmatlar bo‘yicha mablag‘ yetishmovchiligiga yo‘l qo‘ymaslik, shuningdek, joriy yilini sifatli yakunlash maqsadida tuman mahalliy budjeti xarajatlar manbaiga o‘zgartirishlar kiritish yuzasidan

FARMOYISH QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy Davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 21¹-moddalariga asosan 2025-yil uchun tasdiqlangan mahalliy budjet parametrlarida kommunal xizmatlar bo‘yicha mablag‘ yetishmovchiligiga yo‘l qo‘ymaslik, shuningdek, joriy yilni sifatli yakunlash maqsadida tuman mahalliy budjeti xarajatlar manbaiga ilovaga muvofiq o‘zgartirishlar kiritilsin.

2. Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (A.Yusupov)ga, tuman mahalliy budjeti xarajatlar manbaiga kiritilayotgan o‘zgartirishlar bo‘yicha tegishli tashkilot va muassasalarning 2025-yilgi xarajatlar smetalariga o‘zgartirishlarni belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tkazishni amalga oshirish vazifasi topshirilsin.

3. Tuman mahalliy budjetidan moliyalashtiriladigan tashkilotlar rahbarlari tomonidan 2025-yilgi xarajatlar smetalariga o‘zgartirishlar kiritilganligi inobatga olinsin hamda aniqlangan xarajatlar smetalari bo‘yicha mablag‘larni maqsadli va samarali foydalanilishini ta’minlash vazifalari yuklatilsin.

4. Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (A.Yusupov)ga tuman mahalliy budjetining 2025-yilgi xarajatlar manbaiga kiritilayotgan o‘zgartirishlarni viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi bilan kelishgan holda amalga oshirish vazifasi yuklatilsin.

5. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi hamda tuman hokimining birinchi o‘rinbosari O.Abduraximov zimmalariga yuklatilsin.

Farg‘ona tuman hokimi



Inomov X.T

Fargʻona tumani hokimining
2025-yil 25-dekabrdagi
178-11-163-F/25-son farmoyishiga
1-ilova

**Fargʻona tumani mahalliy budjetidan moliyalashtiriladigan budjet muassasalarining kommunal toʻlovlardan
boʻlgan kreditor qarzdorliklarini bartaraf etish boʻyicha tuman hokimi qaroriga ilova**

ming soʻmda

№	Tashkilot nomi	Boʻlim, kichik boʻlim,bob	Jami	Harajat moddasi							
				42 21 000	42 24 000	42 11 000	42 52 110	42 92 200	42 93 000	42 99 990	48 21 190
1	Kambagʻallikni qisqartirish va bandlikka boʻlimi	7 109 120 091	7 800	7 800							
2	Obodonlashtirish boshqarmasi	7065 400 084	24 000		24 000						
		7 042 990 084	-2 500				- 2 500				
3	Veterinariya boʻlimi	7 042 133 250	-2 300							- 2 300	
4	1-sonli sport maktabi	7 083 610 205	-2 700						- 2 700		
			-7 100								- 7 100
5	Maktabgacha va maktab taʼlim boʻlimi	7 091 100 072	-7 800							- 7 800	
			-2 800					- 2 800			
		7 092 100 072	-4 100				- 4 100				
		7 096 300 072	-2 500			- 2 500					

Jami	0	7 800	24 000	-2 500	-6 600	-2 800	-2 700	-10 100	-7 100
------	---	-------	--------	--------	--------	--------	--------	---------	--------